



## BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA AXBOROT-KONSTRUKTIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.

*Olamova M.U.*

*Farg‘ona davlat universiteti Maktabgacha ta‘lim kafedra o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** maktabgacha ta‘lim, ta‘lim tizimini, kompetentlik, axborotlashtirish, axborot kompetensiya, pedagogik faoliyat, zamonaviy texnologiya, tarbiyachi.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, система образования, компетентность, информатизация, информационная компетентность, педагогическая деятельность, современные технологии, педагог.

**Key words:** preschool education, education system, competence, informatization, information competence, pedagogical activity, modern technology, educator.

### **Резюме:**

Hozirgi kunda maktabgacha ta‘lim sohasida o‘quv-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan optimal yondashuvlar yetakchi o‘rinni egallamoqda. O‘quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, real hayotiy masalalarga e‘tibor qaratish, shaxsning bilish jarayonlarini rivojlantirish, turli refleksiya shakllaridan samarali foydalanish va ta‘lim oluvchilarning o‘quv faoliyatiga motivatsiya berishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlar adabiy ta‘lim mazmunini bo‘ljak tarbiyachilarning yaratuvchanlik va bunyodkorlik g‘oyalari motivatsiya beruvchi integrativ, evristik, kreativ va kognitiv yo‘nalishdagi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishga doir ilmiy ishlarni olib borishda muhim o‘rin tutadi.

### **Резюме:**

В настоящее время оптимальные подходы, направленные на повышение качества и эффективности образовательного процесса в сфере дошкольного образования, занимают лидирующие позиции. В образовательном процессе особое значение придается созданию проблемных ситуаций, ориентации на вопросы реальной жизни, развитию познавательных процессов личности, эффективному использованию различных форм рефлексии, мотивации учебной деятельности обучающихся. Эти исследования играют важную роль в совершенствовании содержания литературного образования на основе интегративных, эвристических, творческих и когнитивных педагогических технологий, мотивирующих идеи творчества и творчества будущих учителей.

### **Summary:**

Currently, optimal approaches aimed at improving the quality and efficiency of the educational process in preschool education are taking a leading position. Particular attention is paid to creating problem situations in the educational process, focusing on real-life issues, developing individual cognitive processes, effectively using various forms of reflection, and motivating students for their educational activities. These studies play an important role in conducting scientific work on improving the content of literary education on the basis of pedagogical technologies in the



integrative, heuristic, creative and cognitive directions that motivate future educators to be creative and innovative.

Kirish. Barkamol avlod tarbiyasi va o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks tizimdir. Ushbu tizim ta'lim, g'oyaviy-mafkuraviy, mehnat, axloqiy, estetik, jismoniy va o'z-o'zini tarbiyalashning barcha turlarini birlashtiradi. Mustaqillik sharoitida, har bir yosh avlodning ma'naviy ongini shakllantirish, axborotdan bilim manbai sifatida foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, kompyuter va internet savodxonligini oshirish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonida, ijobiy ta'sirlar bilan bir qatorda, san'at asarlari va ommaviy axborot vositalari orqali tarqaladigan axloqsizlik g'oyalari hamda ma'naviy tahdidlarni aniqlash va anglash yanada dolzarb bo'lib qolmoqda.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmunning tarkibiy qismlariga integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

O'zbekistonda ta'limni islohotlashuvi bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar ta'limni axborotlashtirish muammosiga yetarlicha e'tibor qaratilmoqda. "Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son"[2], "O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son"[3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son"[4].

Mamlakatimiz ta'lim tizimini takomillashtirish masalasi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Davlat strategiyasida maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari aniq belgilangan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining asosiy natijalari sifatida bilim va malakalar tizimini shakllantirish zarurati ko'rsatilgan. Shu bilan birga, intellektual, huquqiy-fuqarolik, kommunikatsion, axborot va boshqa sohalarda asosiy kompetentsiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy ta'lim yondashuvlari bilan bog'liq holda, kompetentlikka asoslangan yondashuv ta'lim oluvchilarning axborotni egallashiga emas, balki hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish malakasini shakllantirishga qaratilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "kompetentlilik" atamasi maktabgacha ta'lim tarbiyasi davlat ta'lim standartiga kiritilgan bo'lsa-da, ilmiy-ta'limiy hamjamiyat ushbu atamaning yagona ta'rifini ishlab chiqmagan. Biroq, barcha ta'riflarda umumiy tushuncha sifatida shaxsning turli vazifalarni bajarishga qodirligi ta'kidlanadi.



Hozirgi kunda o'quv-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan optimal yondashuvlar yetakchi o'rinni egallamoqda. O'quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, real hayotiy masalalarga e'tibor qaratish, shaxsning bilish jarayonlarini rivojlantirish, turli refleksiya shakllaridan samarali foydalanish va ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga motivatsiya berishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlar adabiy ta'lim mazmunini bo'lajak tarbiyachilarning yaratuvchanlik va bunyodkorlik g'oyalariga motivatsiya beruvchi integrativ, evristik, kreativ va kognitiv yo'nalishdagi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishga doir ilmiy ishlarni olib borishda muhim o'rin tutadi. Zero, insonning tadqiqotchilik qobiliyati azaldan, ya'ni uning bilishga bo'lgan ehtiyojlari anglanishi zahirida paydo bo'lgan.

Kompetentlik yondashuvining tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy asarlarida aks etgan. Ushbu tarixiy meroslarimizda kompetensiyaviy bilim olishga yo'naltirilgan g'oyalar jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi bilan bog'liq ko'plab fikrlar bayon etilgan[5].

Hozirgi ta'lim tizimining rivojlanishi nuqtai nazardan amaliy axborot texnologiyalari sohasida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash, axborot bilan ishlash vositasi, taqdim etilayotgan materialni tasvirlash vositasi sifatida ishlash muhim ahamiyatga ega.

Jahon ta'lim tizimlarida axborot-kompetensiyalar va pedagogik loyihalash bo'yicha amalga oshirilgan tajribalar ta'lim tizimimizda ham qo'llanilmoqda. Bu jarayon halqaro talablarga mos keladigan kadrlar tayyorlashga imkon yaratadi.

Bo'lajak tarbiyachilar uchun axborot-konstruktiv kompetensiyani rivojlantirish, ularning kelgusida samarali ta'lim jarayonini tashkil qilish imkoniyatlarini oshiradi. Bu kompetensiya o'z ichiga axborotni tahlil qilish, uni konstruktiv ravishda qayta ishlash va ta'limiy resurslarni yaratish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hozirgi kunda har bir sohada jadal rivojlanmoqda. Bo'lajak tarbiyachilarning AKT bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurati ularning zamonaviy ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlari uchun muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim rol o'ynamoqda. AKTning imkoniyatlari ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quv materiallarini boyitadi va bo'lajak tarbiyachilar uchun global axborot resurslariga keng yo'l ochadi. Bo'lajak tarbiyachi bolalar uchun raqamli o'quv materiallarini ishlab chiqishi, ularga mos raqamli o'yinlar yaratishi, yoki AKTdan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishi mumkin. Bu o'z navbatida bolalar uchun yanada qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratishga xizmat qiladi.



Bugungi kunda ta'lim jarayonida AKTning qo'llanilishi nafaqat yuqori texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda, balki barcha o'quv bosqichlarida muhimdir. Maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha, o'quv materiallarini yaratish, taqdim etish, ta'lim sifatini nazorat qilish va bo'lajak tarbiyachilar bilan muloqot qilishda AKT keng qo'llaniladi. Virtual auditoriyalar, elektron darsliklar, interaktiv ta'lim platformalari, va boshqa raqamli vositalar orqali ta'lim jarayoni yanada qiziqarli va interaktiv bo'ladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Bu borada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vazifalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Natija. Bugungi kunda axborot zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, axborot bilan ishlash kompetentsiyalari jahon ta'lim jarayonining ustuvor strategiyalaridan biriga aylanmoqda. Tarbiyachilik kasbi zamonaviy pedagogik kasblardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ma'noda tarbiyachi, kelajak avlodni rivojlanishiga mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda tarbiyani amalga oshiradigan shaxsdir. Bo'lajak tarbiyachi samimiy o'zbekona fazilatlar bilan bir qatorda, vujudga keladigan nizolarning oldini olish va ularni hal qilish, o'z-o'zini tarbiyalash orqali bilimlarini to'ldirib borish, zamonaviy axborot va axborot oqimlari bilan ishlash, maktabgacha tarbiya va ta'lim usullarini egallagan bo'lishi lozim.

Axborotlashtirish - bu zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi va turli sohalarda axborot bilan ishlash imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonidir. Axborotlashtirish ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon tarbiyachilar va bo'lajak tarbiyachilarning axborotni izlash, tahlil qilish, saqlash, almashish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Axborot tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda va lug'atlarda turli ta'riflar berilgan. Masalan, ayrim manbalar axborotni predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, shu kabi obyektlar haqidagi bilim va tushunchalar sifatida ta'riflaydi. Axborot qiziqish uyg'otishi, saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar sifatida qaraladi. Falsafada, axborot (lot. informatio – tanishtirish, tushuntirish) qadim zamonlardan buyon



qo‘llanib kelinadi, ammo kibernetikaning taraqqiyoti tufayli so‘nggi yillarda yangi va kengroq ma‘noga ega markaziy kategoriya sifatida ajralib chiqdi [6].

Axborot termini barcha jamiyat jabhalarida qo‘llaniladi va pedagogik faoliyatni boshqarish, shuningdek, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda asosiy rol o‘ynaydi. Axborotlar jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xususan, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini boshqarishda asosiy manba hisoblanadi. Ular ob‘ektdan olingan axborotlarni tizimlarga ajratish, qayta ishlash va kerakli maqsadlar bo‘yicha uzatish uchun algoritmlar ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratadi [7].

Axborotdan foydalanish jamiyat rivojlanish darajasini belgilaydi [8]. YUNESKO hulolasiga ko‘ra, axborotlashtirish – axborotlarni to‘plash, saqlash va uzatish vositalarining keng qo‘llanilishidir. Bu mavjud bilimlarni tizimlashtirish, yangi bilimlarni shakllantirish va ularni boshqarish, takomillashtirish va rivojlantirish uchun qo‘llashni ta‘minlaydi [9].

Axborot bilan ishlash turli ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarini o‘z ichiga oladi [10]. F.M. Qo‘chqorova tadqiqotlarida o‘quvchida axborotlarni qayta ishlash, ong osti mexanizmlarini faollashtirish va dalillarga asoslangan mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan [11] o‘quv materiallarini strukturalash va bloklarga ajratish masalalariga urg‘u bergan.

Zamonaviy ta‘lim talablariga ko‘ra, axborot bilan ishlash masalasini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur. Mehnat bozoridagi dinamik o‘zgarishlar va insonning bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlariga bo‘lgan talablarning ortishi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘limni tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi [12]. M.M. Vahobovning fikricha, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘limdir [13].

Maktabgacha ta‘limda axborotlashtirish, bo‘lajak tarbiyachilarning nafaqat zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini oshiradi, balki ular uchun zarur bo‘lgan axborot bilan ishlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bo‘lajak tarbiyachilarning kelajak avlodni tarbiyalashdagi samaradorligini oshiradi.

Jahonda maktabgacha ta‘lim tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha juda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Axborot jamiyati qurilishiga olib keladigan sezilarli o‘zgarishlar ichki ta‘lim tizimiga universal axborotlashtirish vazifasini yuklaydi.

Ushbu tendentsiya doimiy ravishda o‘z faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyor bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zarurligini keltirib chiqaradi. Zamonaviy professional mutaxassis axborot oqimlarida erkin harakatlanishi, ma‘lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, shu jumladan kompyuter



## Ta'lim jarayonida axborotlashtirish amalga oshirish yo'nalishlari

<b>Ta'lim jarayonini isloh qilish</b>	<b>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash:</b>	<b>Axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish:</b>
<ul style="list-style-type: none"><li>• Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim usullarini yangilash va rivojlantirish.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>• O'quv materiallarini elektron shaklda yetkazish, masofaviy ta'lim platformalari va boshqa axborot vositalaridan foydalanish.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>• O'quvchilar va o'qituvchilarning axborot oqimlarini boshqarish, tahlil qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish.</li></ul>

axborot texnologiyalaridan foydalanishi va har qanday muammolarni professional hal qilishi kerak.

P.K.Petrovning ilmiy tadqiqotlarida ta'kidlashicha, axborotlashtirishning asosiy maqsadi ta'lim tizimini fuqarolarni axborot jahon hamjamiyatida axborotlashtirish vositalaridan foydalangan holda ochiq ma'lumotlar bilan hayotga tayyorlash yo'nalishidagi sifatli o'zgartirishdir [14].

A.A.Andreyevning tadqiqotlarida ta'lim tizimini axborotlashtirish jarayonlariga bag'ishlangan. U zamonaviy ta'lim muhitida axborot texnologiyalarining roli va ahamiyatini tadqiq etadi. Olimning fikricha, axborot texnologiyalari ta'limning barcha darajalarida qo'llanilishi kerak, chunki bu kelajak avlodning raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Andreyevning asosiy yutuqlaridan biri - ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi, bu esa o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi [15].

Bizning fikrimizcha, axborotlashtirish - bu nafaqat axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga kiritish, balki tarbiyachilar va ta'lim oluvchilarning axborot oqimlarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi nafaqat bo'lajak tarbiyachilarning va tarbiyachilarning bilim va malakalarini oshirishda, balki ta'limning butun tizimini yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlashimiz mumkin. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ta'lim berish metodologiyasini yanada boyitadi va bo'lajak tarbiyachilarga o'zlashtiradigan bilimlarni chuqurlashtirish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, AKT vositalaridan foydalanish, nafaqat ta'limning samaradorligini oshiradi, balki ta'lim oluvchilarda mustaqil ta'lim olish va o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bu jarayon bo'lajak



tarbiyachilarning global axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasasining bir asosiy jihati ta'lim bo'lsa, ikkinchi asosiy jihati tarbiya, poydevori ilm-fandir. Ilmiy asosi bo'lmagan masalani ijobiy hal etish imkonsiz. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshirish va ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish uchun innovatsiyalarni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Kadrlar salohiyati - bu mehnat resurslarining umumiy soni va jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbiy ko'nikmalari, korxon va tashkilotning turli bo'g'inlarida, jamoatchilik ishlab chiqarishida qatnashishi bilan ifodalanuvchi imkoniyatlar yig'indisidir. Kadrlar salohiyati jamiyat mehnat salohiyatining tarkibiy qismi sifatida muhim rol o'ynaydi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"dagi 22.12.2020 yildagi 802-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-5179335>
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. (2020). O'RQ-637-son, 23-sentyabr. <https://lex.uz/docs/5035297>
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni. (2019). O'RQ-595-son, 16-dekabr. <https://lex.uz/docs/4693389>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
5. I.Soliyev "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish" Ped. Fan. Fal. Dok.(PhD) dissertasiyasi, 2023 yil.
6. N.Saidova "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot- kommunikativ kompetentligini rivojlantirish" Ped. Fan. Fal. Dok. (PhD) dissertasiyasi, 2023 yil.
7. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. – 480 b
8. Aripov A.N. va boshqalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. – Toshkent, 2004. – 500 b
9. Aripdjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. Ped. fan. (Phd) dis. avtoref. – Toshkent, 2017.
10. Mavlyanov A., Javlonov Sh.S., Abdalova S., Yusupova L. Pedagogik texnologiya va ta'lim jarayoni sifatini boshqarishga oid ayrim so'zlarning izohli lug'ati. – Toshkent: «Voriz-nashriyot», 2010. – 120 b.
11. Qo'chqorova F.M. Yangi avlod darsliklarida taqdim etiladigan o'quv materiallarini konsentrizm prinsipi asosida strukturalashtirishning didaktik parametrlari Ped. fan. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent. 2018 yil. – 47 b.
12. Usarov J.E. Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) ... dis. – Toshkent, 2019. – 267 bet.
13. Vahobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim sifati monitoringi modelini amaliyotga joriy etish – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili. Maktab va hayot. – №3 (119), 2016. 2 – b.
14. P.K.Petrov, Jismoniy madaniyatdagi axborot texnologiyalari va sport: darslik, qo'llanma [matn]. /, 2006 yil. 323 b.
15. A.A.Andreev, Oliy maktab pedagogikasi. Yangi kurs [matn]. / - M.: Moskva xalqaro ekonometriya instituti, informatika, moliya va huquq, 2002. 264 b